

TA'LIM JARAYONIDA VIZUAL O'RGANISHNING SAMARADORLIGI

Author: **Turakulova Sarvinoz Olimjon qizi**

Co-author: **Sobirova Feruza Islomjon qizi**

Uzbekistan State World Language University

Faculty of English Philology

Email: toraqulovasarvinoz5@gmail.com

Email: f.sobirova2@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada visual o'rganishning ahamiyati hamda uning talabalarning tushunish darajasi, xotirada saqlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Visual o'rganish Paivio tomonidan ilgari surilgan ikkiyoqlama kodlash nazariyasi kabi mashhur nazariyalar asosida samarali ta'lim yondashuvi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada visual va og'zaki axborotning uyg'unligi o'quvchilarga ma'lumotni yanada samarali qayta ishlashga yordam berishi va kognitiv yuklamani kamaytirishi tushuntiriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va multimedia vositalari orqali visual o'rganishning afzalliklari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: o'rganish strategiyalari, vizual o'rganish, multimedia orqali o'rganish, kognitiv jarayonlar, ta'lim texnologiyalari, xotirada saqlash.

Annotation.

This article examines the power of visual learning and its role in improving students' comprehension, memory retention, and critical thinking skills. Visual learning is discussed as an effective educational approach supported by well-known theories such as Paivio's Dual Coding Theory and Mayer's Cognitive Theory of Multimedia Learning. The article explains how combining visual and verbal information helps learners process information

more efficiently and reduces cognitive load. It also highlights the benefits of visual learning in modern education, particularly with the use of digital tools and multimedia resources.

Key words: learning strategies, visual learning, multimedia learning, cognitive processing, educational technology, memory retention.

Kirish

Ta'lim jarayinida o'quvchilarning bilim olish usullari turlicha bo'lib, har bir talabanning o'rganish usullarni aniqlash va qo'llash talabanning bilim olish jarayonini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Vizual o'rganish – bu talabanning ma'lumotni ko'rish orqali qabul qilishi va qayta ishlashini ta'minlovchi metod bo'lib, u zamonaviy ta'lim texnologiyalari va multimedia vositalari bilan uyg'un ishlaganda o'quv jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talaba va o'quvchilarning vizual materiallar orqali o'rganish darajasi ancha yuqori bo'ladi, chunki ular ma'lumotni nafaqat eslab qoladi, balki uni tahlil qilish va tushunish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

O'rganishlarning o'zi bir nechta turlarga bo'linadi.

Vizual o'rganish. Ma'lumotni rasmlar, diagrammalar, grafikalar, videolar yordamida qabul qilish.

Afzalliklari: tushunishni osonlashtiradi, xotirada uzoq vaqt saqlanadi.

Eshitish (Auditory) o'rganish. O'rganish tinglash orqali amalga oshadi: darslarni tinglash, audio kitoblar, ma'ruzalar.

Afzalliklari: talaffuz, tinglab tushunish va eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Harakat orqali (Kinestetik) o'rganish. O'rganish harakatlar va amaliy mashqlar orqali amalga oshadi.

Misollar: laboratoriya ishlari, dramatizatsiya, model yasash, sport mashqlari.

O'qish, yozish orqali o'rganish(Reading, writing learning)

Matnlarni o'qish va yozish orqali bilim olish.

Afzalliklari: nazariya va bilimni muslahkamlash va eslab qolish osonlashadi.

Ushbu maqolada esa o'rganishlarning eng muhimlaridan biri bo'lgan vizual o'rganishni batafsil ko'rib chiqamiz.

Vizual o'rganishning afzalliklari.

Vizual o'rganishning bir nechta asosiy foydalari mavjud:

1. Xotirada saqlashni yaxshilash

Rasmlar, diagrammalar va inforrafiyalar yordamida ma'lumot uzoq muddatli xotirada qoladi.

2. Tushunishni osonlashtiradi.

Murakkab mavzular, masalan, biologic tizimlar, tarixiy jarayonlar yoki matematik formulalar, vizual materiallar yordamida soda va aniq tushuntiriladi.

3. Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Grafikalar va diagrammalar o'quvchiga ma'lumotni solishtirish va tahlil qilish va xulosalar chiqarishga yordam neradi.

4. Talabalarni faollashtirish

Raqamli taqdimotlar, interaktiv videolar va multimediya mashqlar talabalarning darsga qiziqishini oshiradi.

5. O'zini o'zi nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Talabalar vizual materiallarni qayta ko'rib chiqib, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA.

Vizual o'rganish talabalarning bilim olish jarayonini samarali qiladi, xotirada saqlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, interaktiv va raqamli ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, vizual o'rganish metodini muvaffaqiyatli

qo'llash material sifati, texnologik imkoniyatlar va talabalar individual xususiyatiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Paivio, A. (1986). Mental representations: A dual Coding Approach. Oxford University Press. 123-130b.
2. Mayer, R.E. (2001). Multimedia learning. Cambridge University Press. 164-180b.
3. Mayer, R.E. & Anderson, R.B. (1991). Animations need narrations: An experimental test of a dual-coding hypothesis. 150-160b.
4. Clark, J.M. & Paivo, A. (1991). Dual coding theory and education. Education Psychology Review. 149-210b
5. BADDELEY, A.D. (1992). Working Memory. Science, 255, 556-559b
6. Mayer, R.E. (2024). The Past, Present, and Future of the Cognitive Theory of Multimedia Learning. Educational Psychology Review. 1-25.